

Ko'chamiz va mahallamiz

Bosh kelishik



lug'at



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Bizning mahalla juda obod va chiroyli. Ko'chalari toza, yo'laklari tekis. Har bir uy oldiga gullar ekilgan. Yo'l chetidagi daraxtlar ko'chamizga ko'rk bag'ishlaydi.

Mahallamizda kichik kutubxona, bolalar maydonchasi va yugurish yo'lakchasi bor. Tengdoshlarimiz bilan maydonchada o'ynaymiz. Kutubxonada qiziqarli kitoblarni o'qiymiz.

Menga mahallam juda yoqadi.



Bosh kelishik **kim?**, **nima?**, **qayer?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Bosh kelishikning qo'shimchasi yo'q.

Masalan: *Mahallamiz* obod va chiroyli. *Bolalar* maydonchada o'ynaydilar.





2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi shahar yoki qishloqda yashaysiz?
2. Sizning uyingiz qaysi mahallada joylashgan?
3. Mahallangiz qanday nomlanadi?
4. Mahallangizda qanday tadbirlar o'tkaziladi?
5. Siz mahalla raisi bo'lsangiz, qanday ishlarni amalga oshirardingiz?
6. Sizga o'zingiz yashayotgan mahalla yoqadimi? Nima uchun?



1-mashq. So'z birikmalarini kengaytirib, gaplar hosil qiling.

Namuna: Bolalar o'ynaydilar → Bolalar sport maydonchasida o'ynaydilar.

1. Gullar ekamiz.
2. Daraxtlar o'sadi.
3. Qushlar sayraydi.
4. Mashinalar qatnaydi.
5. Daraxtlar gullaydi.
6. Mahalladoshlar ishlashadi.



2-mashq. So'zlarni to'g'ri joylashtirib, gaplar hosil qiling.

1. yashayman, "Navbahor", Men, mahallasida.
2. hasharlarda, oilamiz, mahalladagi, Biz, qatnashamiz, bilan.
3. taklif etdi, Mahalla, barchani, tadbirga, raisi.
4. inoq, yashovchilar, bir-birlari, Mahallada, bilan, ahil, yashaydilar.



3-topshiriq. Yashiringan so'zlarni toping. Ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

I	B	K	O'	CH	A	F	R	A	I	S
O	S	Y	M	A	H	A	L	L	A	J
B	Q	O'	SH	N	I	L	A	R	D	A
O	L	A	H	O	L	I	P	U	Y	K
D	Q	W	R	T	H	A	SH	A	R	V





4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Obod mahalla bo'ylab

Kavsar Turdiyeva

Bizning mahalla-yu ko'y,
Har bir xonadon va uy
Mehrlarga to'lmoqda,
Shundan obod bo'lmoqda.

Unda har bekat, guzar,
Insonlar bilan go'zal.
Gullarga to'lgan rasta,
Tutar sizga guldasta.

Bizda doim qaynar ish,
Har soatda o'zgarish.
Unda bilim o'chog'i,
Quvnoq maktab quchog'i.

Mahalla bolalari
Tarqalib turli yoqqa,
O'ynashar bekinmachoq,
Ko'zboylag'ich va soqqa.

Mahallam ajib, ko'rkam,
U ham bir kichik o'lkam.



Mahallangiz haqida kichik matn tuzing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

